

O‘ZBEKISTONGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH IMKONIYATLAR

Rashidova Jasmina Rustam qizi

Diplomat University

1-kurs talabasi

ANNOTATSİYA

Maqolada investitsiya siyosatining ilmiy-nazariy asoslari, milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishda O‘zbekistonda investitsiya siyosati ustuvor yo‘nalishlarida tutgan o‘rni, ularning afzalliklari va kamchiliklari, milliy va jahon amaliyotida investitsiya yo‘nalishlarining holati tahlili, mavjud to‘siqlar va muammolar haqida atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. O‘zbekistonda davlat investitsiya siyosati ustuvor yo‘nalishlaridan foydalanish bo‘yicha olib borilgan o‘rganishlar natijasida ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: *milliy iqtisodiyot, raqobatdoshlik, investitsiya, portfel investitsiyalar, davlatning investitsiya siyosati, xorijiy kapital, tijorat banki, xususiy investitsiyalar, investitsiyalar oqimi.*

ABSTRACT

The article discusses in detail the scientific and theoretical foundations of investment policy, the role of priority areas of investment policy in Uzbekistan in increasing the competitiveness of the national economy, their advantages and disadvantages, an analysis of the state of investment areas in national and world practice, existing obstacles and problems. As a result of studies conducted on the use of priority areas of state investment policy in Uzbekistan, scientific proposals and practical recommendations were developed.

Keywords: *national economy, competitiveness, investment, portfolio investments, state investment policy, foreign capital, commercial bank, private investments, investment flow.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar asosida so‘nggi yillarda investitsiya siyosatini erkinlashtirish, xorijiy kapitalni jalb etish va davlat hamda xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo‘nalishida muhim huquqiy, institutsional va amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida davlat investitsiyalari siyosatini ustuvor sohalarga yo‘naltirish, innovatsion va yuqori texnologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, investitsiya siyosatining: sanoatni modernizatsiya qilish, energetika xavfsizligini ta'minlash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy sohalarni ilgari surishdagi roli tobora kuchayib bormoqda.

Bunday sharoitda davlat investitsiyalarining ustuvor yo'nalishlarini o'rganish, ularning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini tahlil qilish va bu boradagi amaliy muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar taklif etish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Shu nuqtai nazardan, "O'zbekistonda davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi magistrlik ishi zamonaviy iqtisodiy islohotlarning mazmunini ochib berishga, mavjud investitsiya oqimlarining samaradorligini tahlil qilishga, shuningdek, davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlil. Investitsiyalarni faol jalb etish, qulay investitsiya muhitini shakllantirish va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ushbu investitsiyalar ishtirokida korxonalar tashkil etish hamda investitsiyalarning hududlar iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish bo'yicha ko'plab milliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud. Masalan, xorijiy iqtisodchi K. Eklundning fikriga ko'ra, investitsiyalar – bu kelajakda iste'mol hajmini oshirish imkoniyatini yaratish uchun hozirgi kunda sarflanmay, zaxira sifatida saqlanadigan resurslardir. Uning bir qismi bevosita iste'mol mahsulotlari shaklida zaxiraga qo'yilsa, boshqa qismi esa ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga yo'naltirilgan mablag'lardir.

E.D.Dolan va D.S. Lindsey (2018) larning fikrlaricha investisiyaning mazmuni "shakllanaytgan iqtisodiy tizimda kapital hajmining o'sishi, odamlar amal qiladigan ishlab chiqarish resurslari taklifini yuksalishida" (Dolan&Lindsey,2018) .

U.Sharp (2012) ning aytishicha, investitsiya – istiqbolda yanada ko'proq miqdordagi mablag'olish uchun ma'lum miqdordagi pul bilan bugun ajralishdir (Sharp, 2012).

L.Gitman, M.Djonk (2016) larning fikrlaricha investitsiya – bu kapitalni shunday joylashtirishki, bunda uning qiymati saqlanib qolishi, o'sib borishi va ijobiy miqdordagi daromadni keltirishi lozim (Gitman & Djonk, 2016) .

K.Makkonell, S.Bryu (2014) larning fikrlaricha investitsiya – bu modddiy zaxiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarishga xarajatlardir (Makkonell & Bryu, 2014)

R.Samuelson, V.Nordxauss (2016) larning fikrlaricha investitsiya iqtisodiy holat bo'lib, kelajakda ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida bugungin iste'mol xarajatlaridan voz kechish demakdir. Unda vositalar moddiy yoki nomoddiy

kapitaliga yo'naltiriladi. Moliyachilar fikriga ko'ra, investitsiya qimmatli qog'ozlarni xarid qilishni anglatadi (Samuelson & Nordhaus, 2016)

Investitsiya turlari, ularni moliyalashtirish manbalari, investitsiyalarning tasnifi hamda rivojlanishining ilmiy-amaliy jihatlari bo'yicha respublikamizning yetakchi olimlari – D. G'ozibekov, B. A. Abdukarimov, A. N. Jabriyev, M. K. Pardayev, D. Tojiboyeva (2012) va boshqalar—muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan va o'z nazariy hamda amaliy fikrlarini ilgari surganlar. Ularning izlanishlari investitsiya faoliyati hamda investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

D.G'ozibekov (2015) fikriga ko'ra, investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag' olish, ularni asosli holda safarbar qilish, risklar darajasini hisobga olgan holda capital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi (G'ozibekov, 2015).

Metodologiya. O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyatini tahlil qilishda tahlil va sintez metodi, komparativ tahlil metodi, statistik tahlil metodi, ekspert baholash usuli, normativ-huquqiy tahlil usuli ilmiy metodlardan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sanaladi. O'zbekiston 2024-yilda rekord darajasidagi 11,9 milliardlik dollar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga erishdi. Bu natija dastlab iqtisodiy muvaffiqiyat sifatida taqdim etiladi. Ammo har qanday investitsiya oqimi faqat statistika raqamlar bilan emas balki ularning sifati, adolatligi, mahalliy manfaatlarga mosligi va uzoq muddatli ta'sir orqali baholanishi kerak. Afsuski, hozir investitsiya siyosati muvozanatli yondashuv yetrali emas. Investitsiya-bu iqtisodiyot darayveri hisoblanadi. mamlakat iqtisodiy siyosati bugungi kunda investitsiyalarga bog'liq bo'lib qoldi. 2022-yil davomida O'zbekistonga jami 240 trln so'm investitsiyalar jalb qilingan, shulardan 8 milliard dollari to'g'ridan to'g'ri kirib kelgan va eksport miqdori 19 milliard dollarni tashkil etadi. Davlat investitsiya dasturi doirasida 3,7 milliard dollarlik 158 ta yirik loyihalar ishga tushdi va mamlakatda 25 000 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi, va tog'-kon metallurgiya sanoati, qishloq xo'jaligi, yengil sanoat va qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohalariga to'g'ri keladi. Endilikda 2023-yilda 30 milliard dollarlik investitsiyalar jalb qilinishi rejalashtirilgan, uning 25 milliard dollari xususiy investitsiyalar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya muhitini rivojlantirish borasida tegishli huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, kafolat va imtiyozlarni o'zida aks ettiruvchi bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularda xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalaniishi va raqobat muhitiga sharoit hamda zarur investitsiyaviy

infratuzilmaning yaratilishini nazarda tutuvchi normalar belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mamlakatimizda hukm surayotgan siyosiy barqarorlik hamda boy tabiiy mineral resurslarning mavjudligi investitsiya muhitini rivojlantirish uchun imkoniyatlar eshigini keng ochadi. Biroq zamon bilan hamnafas ravishda taraqqiy etish uchun bularning o'zi kifoya qilmaydi. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo hamjamiyati reytinglarida munosib o'rinlarni egallash uchun yangi zamonaviy g'oyalarni o'ylab topish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xorijiy investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, yuqori texnologik raqobatdosh tarmoqlarni yaratish, ilg'or xorij texnologiyalari, nou-xau va boshqaruv tajribalarini tatbiq etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda aksariyat jabhalarga xorij investitsiyasini kiritish hamda iqtisodiyotning rivojlanishini bosqichga olib chiqish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda 2025-yilda 43 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilmoqda. 2025-yilda O'zbekiston 43 milliard dollarlik investitsiya o'zlashtirishni rejalashtirmoqda.

2017-yildan buyon O'zbekiston iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan 188 milliard dollar investitsiya kiritilgan. Shundan 87 milliard dollari chetdan jalb qilingan. Natijada investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshib, barqaror iqtisodiy o'sishga zamin bo'lyapti, deyiladi xabarda. 2024-yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1,3 baravar ko'payib, 36 milliard dollardan oshgan. Bularning hisobiga yil boshidan buyon qo'shimcha 70 trln so'mlik qiymat beradigan 560 ta yirik va o'rta loyihalar ishga tushirilgan. 2025-yildan eksportni yana 1 milliard dollarga oshirish imkoniyati paydo bo'lgan. 2025-yil 43 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish ko'zda tutilmoqda. Bu orqali 300 dan ortiq yirik loyiha bajarilishi, import o'rnini bosuvchi 662 ta yangi mahsulot ishlab chiqarilishi kutilmoqda.

Bugungi kunda 1890 ta loyiha bo'yicha ish ketmoqda. Ularning ijrosini jadallashtirish uchun mas'ullar belgilandi. Ma'lumki, har qanday mamlakat rivojlangan davlatlar amaliyoti va nazariyasini o'rganmasdan, jahon hamjamiyatidan ayri holda rivojlanmaydi. Shunday ekan, har bir davlat ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, iqtisodiyotda yuqori ko'rsatkichlarga erishish, aholining ijtimoiy turmush darajasini oshirish uchun milliy hamda xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada u yoki bu mamlakatda shakllangan investitsiya muhiti va u orqali investitsion faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarali investitsion faoliyati mavjud bo'lsa, o'sha tomonga iqtisodiyotni

harakatga keltiruvchi kuch - investitsiyalar oqimi tezlashadi. Investitsiyalarning noto'g'ri taqsimoti – iqtisodiy tengsizlik manba. Bugungi kunda O'zbekistonga kirayotgan xorijiy investitsiyalarning katta qismi faqat ayrim hududlarga yo'naltirilmoqda – Toshkent, Navoiy, Farg'ona vodiysi kabi sanoat markazlari asosiy e'tiborda. Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Qoraqalpog'iston kabi iqtisodiy jihatdan sust hududlar esa chetda qolmoqda. Natijada:

- Mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovut chuqurlashmoqda.
- Ichki migratsiya kuchaymoqda – aholi ish topish uchun poytaxt va atrofidagi hududlarga ko'chmoqda.
- Hududlarda ijtimoiy norozilik va umidsizlik kuchaymoqda.

“Investitsiyalar faqat markazga emas, butun mamlakat bo'ylab adolatli taqsimlanishi kerak. Aks holda iqtisodiy rivojlanish emas, regional tengsizlikni kuchaytiramiz. “Investitsiyalarning sektoral nomutanosibligi 2024-yilgi investitsiya oqimining katta qismi – energetika, qurilish, neft-gaz kabi sohalarga yo'naltirilmoqda. Bu qisqa muddatli iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashi mumkin, ammo:

- Sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan, innovatsiya kabi sohalar e'tibordan chetda qolmoqda.
- Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha jiddiy strategik sarmoyalar yetarli emas.
- Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, zamonaviy ishlab chiqarish sohalari deyarli investitsiyasiz qolmoqda. Bu esa uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlay olmaydi, balki iqtisodiy qaramlikni kuchaytiradi. Xorijiy investorlar bilan shartnomalar tuzish jarayonida:

- Ko'plab bitimlar oshkora emas, jamiyat ularning shartlarini bilmaydi.
- Sud tizimi mustaqilligi va huquqiy barqarorlik darajasi past.
- Davlat ba'zida shartnomalarni bir tomonlama bekor qilgan holatlar mavjud – bu esa investor ishonchini pasaytiradi.

“Investitsiya faqat kapital emas – ishonchdir. Huquqiy himoya yo'q joyda ishonch ham, sarmoya ham uzoq yashamaydi.” Davlat kafolatlariga ortiqcha suyanish. Ko'plab yirik xorijiy loyihalar davlat kafolatisiz amalga oshmayapti. Investorlar real bozor xavfini emas, faqat davlatning kafolatini tanlayapti. Davlat majburiyatlari ortib bormoqda – agar loyiha muvaffaqiyatsiz bo'lsa, zarar byudjetdan qoplanadi.

Bu esa ichki soliqlar, inflyatsiya va davlat qarzi ko'payishiga olib keladi. Yuqori darajadagi davlat kafolatlari – bu sog'lom iqtisodiyotni emas, xavfli sarmoya siyosatini anglatadi. Mahalliy manfaatlar ikkinchi planda qolmoqda. Xorijiy investorlar uchun berilayotgan imtiyozlar (soliqdan ozod qilish, yer ajratish, bojxona yengilliklari) mahalliy tadbirkorlikni soyada qoldirmoqda. Mahalliy biznes egalari

teng raqobat muhitidan mahrum va investorlarning arzon ishchi kuchi sifatida ko'rilmoqda hamda shartnomalarda mahalliy aholi manfaatlari (atrof-muhit, ish o'rinlari, ekologik xavfsizlik) ko'p hollarda inobatga olinmaydi. "Sarmoya – bu hamkorlik. Bir tomonlama foyda emas, o'zaro tenglikka asoslanishi lozim. Kadrlar salohiyati va texnologik transfer muammolari. Ko'plab xorijiy loyihalarda:

- Boshqaruv va texnik lavozimlar xorijlik mutaxassislariga berilmoqda;
- Mahalliy ishchi kuchi past malakali va past maoshli lavozimlarga joylashtirilmoqda;
- Texnologiyalar transferi (o'rganish, malaka oshirish, ilmiy hamkorlik) sust yoki umuman yo'q. Ekologik xavf va barqarorlik tanqisligi. Yirik sanoat, gaz, neft va atom loyihalari – uzoq muddatli ekologik xavf tug'diradi:
 - Havo va suv ifloslanishi ortmoqda
 - Yer resurslarining degradatsiyasi kuchaymoqda
 - Yashil energetika ulushi past darajada qolmoqda. Investorlar bilan ekologik xavfsizlik yuzasidan jamoatchilik eshituvlari, mustaqil baholovlar va fuqarolik nazorati yetarli darajada amalga oshirilmayapti. Bu esa ekologik muvozanatga tahdid tug'diradi. Shunday ekan, xorijiy investitsiyalar O'zbekistonni texnologik jihatdan rivojlantirmayapti, balki faqat ish o'rinlari soni orqali statistik "yutuq" keltirmoqda. Qisqa muddatli foydaga yo'naltirilgan siyosat.


Investitsiya milliy iqtisodiyotda nisbatlil yangi tennin hisoblanadi. Investitsiya - iqtisodiyotni rivojlaltirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish qo'yishdir. An'anaviy tarzda iuvstitsiya deganda kelgusida ko'zda tutilgan daromadlami olish maqsadida hozirda aniq iqtisodiy loyihalami amalga oshirish tushuniladi. Investitsiya mohiyatiui tavsiflashdagi bunday yondashuvga milliy, shu bilan birga, xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda birlamclti e'tibor beriladi. Investitsiyalaming iqtisodiy mohiyati va mazmuni to'g'risida iqtisodchi olimlar o'rtasida xilma-xil qarashlar va flklrilar mavjud. Bu so'zning ham keng ma'nosidan, ham tor ma'nosidan foydalanish mumkin. «Investitsiya» tushunchasining ma'no-mazmuniga hozirgacha yakuniy bir ta'rif berilmagan va iqtisodiy fanning turli sohalarida investitsiyaning maqsadi, vazifalari, manbasi, mablag' kiritish sohalar va obyektlarining xususiyatlaridan kelib chiqib turlicha ta'rif berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi PF-4434 sonli Farmoni bilan xorijiy investorlar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun yaratilgan kafolat va imtiyozlar

1. Xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSH dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi

korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat, mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish uchun majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llash huquqi berildi.

2. Qiymati 50 million AQSH dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

3. Vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, tijorat banklari tomonidan xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning faoliyati bilan bog'liq qo'shimcha talablar va cheklovlar o'rnatilishi qat'iy qat'iyan taqiqlangan va bu hol qonunga xilof deb hisoblanadi.



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'sish sur'atlari dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari
asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ijtimoiy infratuzilma:


- 14,844,2 ming m² turar joy qurildi (2023-yilga nisbatan 0,6% o'sish);
- 1 418,8 kmsuv tarmoqlari ishga tushirildi, shundan 70,8% qishloq joylarga to'g'ri keladi;
- 25,3 kmgaz tarmoqlari qurildi, shundan 9,0 km qishloq joylarga to'g'ri keladi.

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 2,3 barobarga ko'paydi, ayniqsa joriy davrda o'tgan yilga nisbatan 137,6 trln so'mga ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi.

So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2021-2022-yillarda 102,9-100,2 % atrofida o'sish kuzatilgan bo'lsa, so'nngi ikki yilda yuqori o'sish sur'atlari 123,4 % va 127,6 % kuzatildi.

2024-yilda asosiy kapitalga 493,7 trln so'm investitsiya kiritilib, bu 2023-yilga nisbatan 127,6 % o'sishni tashkil etdi. 75,9 % yoki 374,7 trln so'm jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirildi. **24,1 % yoki 119,0 trln so'm** korxonalar, tashkilotlar va aholi mablag'lari hisobidan yo'naltirildi. **Markazlashgan manbalar** orqali **51,9 trln so'm**.

Markazlashmagan manbalar orqali **441,8 trln so'm** investitsiya amalga oshirildi. Bu ko'rsatkichlar **O'zbekiston investitsiya muhitining faolligini** aks ettirib, iqtisodiy o'sish va infratuzilma rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.



2-rasm. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, % da

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan


2024-yilda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 51,9 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 95,8 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 10,5 % ga yetdi.

	Hajmi, trln.so'm	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	1,9	97,4

Respublika budjeti	23,6	90,3
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	22,8	157,1
Suv va kanalaizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	3,6	79,9

3-rasm. Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari



4-rasm. Yillar bo'yicha markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan


2024-yil yanvar-dekabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 441,8 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 132,8 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 89,5 % ga yetdi.

1-jadval

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati

	Hajmi, trln.so'm	O'sish sur'ati, % da
Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	12,7	86,5
Aholi mablag'i	32,0	98,7
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	150,5	152,0
Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar	159,6	166,2
Korxona mablag'i	87,0	96,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
asosida muallif tomonidan tuzilgan



**5-rasm. Yillar bo‘yicha markazlashmagan moliyalashtirish manbalari
hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
asosida muallif tomonidan tuzilgan

Respublika budjeti hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 22,8 trln so‘mni tashkil etdi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ularning ulushi esa 4,6 % ga yetdi. Yuqori ko‘rsatkichlar Surxondaryoda – 1,3 trln so‘m yoki hududdagi jami hajmning 8,3 % i, Samarqand – 2,4 trln so‘m yoki 8,1 % va Sirdaryo viloyatida – 0,8 trln so‘m yoki 7,6 % kuzatildi.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotda joriy etish milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada faollashtirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu holat pirovardida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish asosida, kelgusida mamlakatimizda investitsion siyosatni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Taklif va xulosalar. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi keskin ortmoqda. Bu statistik jihatdan iqtisodiy muvaffaqiyat sifatida ko‘rsatilsa-da, investitsiyalarning amaliy sifati, adolatli taqsimoti va milliy manfaatlarga xizmat qilishi hali ham katta savollar ostida qolmoqda. Iqtisodiyotning barqaror harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi uchun, ularning oqimi faqat markaziy va rivojlangan sanoat hududlarida to‘planmasligi, balki butun respublika bo‘ylab adolatli taqsimlanishi zarur.

Bugungi kunda investitsiyalar ko‘proq energetika, qurilish va neft-gaz kabi qisqa muddatli foyda keltiruvchi sohalarga yo‘naltirilmoqda. Buning evaziga esa sog‘liqni saqlash, ta’lim, ilm-fan, raqamli texnologiyalar kabi strategik jihatdan

muhim, lekin daromadi nisbatan kechikadigan yo‘nalishlar e‘tibordan chetda qolmoqda. Bu esa uzoq muddatli innovatsion va inkluziv iqtisodiy o‘shishga jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xorijiy investorlar bilan tuzilayotgan bitimlar ko‘plab hollarda yopiq va oshkoralikdan yiroq, huquqiy muhit esa zaif. Sud tizimining mustaqilligi past, shartnomalarning bir tomonlama bekor qilinishi esa investorlar ishonchini pasaytiradi. Davlat kafolatlariga haddan ortiq tayanish esa xatarli sarmoya siyosatini shakllantirib, byudjet va soliqqa bosimni oshirmoqda.

Yana bir muhim masala – xorijiy investitsiyalarning mahalliy manfaatlarga xizmat qilmasligi. Imtiyozlar ko‘proq chet el investorlariga berilayotgani mahalliy tadbirkorlikni soyada qoldirmoqda. Texnologik transferlar va mahalliy kadrlarga bilim o‘tkazish esa sust, bu esa o‘z-o‘zidan “investitsiya faqat ish o‘rni yaratish” darajasida qolayotganini anglatadi.

Ekologik xavfsizlikka e‘tibor yetarli emas. Neft, gaz, atom kabi yirik loyihalar ortidan ekologik muvozanat buzilmoqda. Jamoatchilik ishtiroki, mustaqil monitoring, ekologik shaffoflik — bularning barchasi deyarli yo‘q.

Xorijiy investitsiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotining rivoji uchun muhim, ammo hozirgi siyosat ularni sifatli va barqaror yo‘naltirishda yetarli darajada muvozanatli emas. Investitsiyalar nafaqat kapital, balki ishonch, teng sheriklik va kelajakka sarmoya sifatida qaralishi lozim. Aks holda, ular qisqa muddatli foyda evaziga uzoq muddatli iqtisodiy qaramlik, ekologik falokat va ijtimoiy norozilikni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. / <http://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/54>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга тақдим этган Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь
3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 26.12.2019й. 03/19/598/4221-сон
4. Ғозибеков Д.Г. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: “Молия”, 2003. – 332 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати: 2022 йил январь-декабрь. – Т.: 2023. – 519 б.
6. S&P Ўзбекистон рейтинг прогнозини салбий деб баҳолади. /<https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/07/tashqi-qarz/#!>

7. World Bank, “Investment Climate” /www.worldbank.org/investmaentclimate>
8. World Investment Report 2024. Investing in sustainable recovery. United Nations Geneva, 2024. – P.12.
9. <http://ifc.org>
10. <https://data.worldbank.org/indicator/NE.GDI.FTOT.ZS?locations=CN-IN-SG-MY-KZ-TR-UZ-XP>
11. <http://invest.gov.uz/uz/investor/lgoty-i-preferentsii-dlya-predpriyatij-s-uchastiem-inostrannogo-kapitala/>
12. <http://www.raexpert.ru>
13. <https://data.worldbank.org/indicator/ny.gdp.pcap.cd>
14. <http://reports.weforum.org/global-competitiveness-report-2018/competitiveness-rankings/>
15. https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/Debt_Bulletin_4Q_2021_PJBUYWX.pdf
16. <https://www.heritage.org>
17. <http://www.worldbank.org/en/country/mic/overview>
18. <https://www.heritage.org/index/country/uzbekistan>
19. <http://worldcompetitiveness.imd.org/>
20. <https://www.mida.gov.my/>
21. <https://fcsc.gov.ae/en-us/Pages/Statistics/Statistics-by-Subject.aspx#/%3Fsubject=Economy&folder=Economy/National%20Account/National%20Account>